

**Toshkent farmasevtika instituti talabalari o'rtasida o'tkaziladigan  
"Men diniy ekstremizm va terrorizm tahdidini qanday tushunaman?"  
mavzusidagi "Eng yaxshi maqola" nominatsiyasidagi masofaviy tanlov  
Nizomi**

**I. Umumiy qoidalar**

1.O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vaziri tomonidan 2020 yilning 17 yanvar kunida tasdiqlangan "2020 yilda yoshlar o'rtasida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tizimida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan "Yo'l xaritasi"ning 22-bandni hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2020 yilning 20 iyun kundagi 330-sonli buyrug'inining ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etiladi.

2. "**Men diniy ekstremizm va terrorizmning tahdidini qanday tushunaman?**" mavzusida "Eng yaxshi maqola" nominatsiyasidagi masofaviy tanlovda institutda tahsil olayotgan talabalarning o'zlarining ijodiy ishlari bilan ishtiroy etadi.

3.Tanlov "Eng yaxshi maqola" nominatsiyasida masofaviy o'tkaziladi.

4.Tanlovnинг institut bosqichlarini tashkil etish va o'tkazish jarayoni institut Yoshlari bilan ishslash prorektori hamda bo'lim boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.

**II.Tanlovnинг maqsadi va vazifalari**

5. Tanlovnинг asosiy maqsadi – talaba-yoshlari o'rtasida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligini ta'minlash, ularni turli ekstremistik oqimlarga qo'shilib ketishining oldini olish, institutda talaba-yoshlarni dunyoviylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, yoshlarmizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, o'z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

6.Tanlovnинг vazifalari quyidagilardan iborat:

- talaba-yoshlari o'rtasida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligini ta'minlash, ularni turli ekstremistik oqimlarga qo'shilib ketishining oldini olish;
- institutda talaba-yoshlarni dunyoviylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish;
- talaba-yoshlarni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, o'z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste'dodli yoshlarni har tomonlama rivojlantirish;
- yoshlarda yetuk qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish;
- chora-tadbirlar Dasturining mazmun-mohiyati targ'iboti ta'sirchanligini oshirish;
- yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash;

- "Men diniy ekstremizm va terrorizmning tahdidini qanday tushunaman?" mavzusida o'tkazilgan "Eng yaxshi maqola" nominatsiyasidagi masofaviy ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka yetkazish.

### **III. Tanlovnvi o'tkazish bosqichi va muddatlari**

7. "Men diniy ekstremizm va terrorizmning tahdidini qanday tushunaman?" mavzusida o'tkaziladigan "Eng yaxshi maqola" nominatsiyasidagi masofaviy tanlov 3 bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich – akademik guruhlar talabalari o'rtasida joriy yil iyun oyining ikkinchi o'n kunligida o'tkaziladi.

Ikkinci bosqich – fakultetlararo ularning g'oliblari o'rtasida iyun oyining uchinchi o'n kunligida o'tkaziladi.

Yakuniy bosqich - respublika bosqichi 2020 yil iyul oyining birinchi o'n kunligida o'tkaziladi.

### **IV. Tanlovnvi tashkil etish va o'tkazish**

8. Tanlovnning birinchi va ikkinchi bosqichini o'tkazish bo'yicha institut rektori buyrug'i bilan Ishchi guruhi va soha professor-o'qituvchilari, olimlari, mutaxassislari, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda Hakamlar hay'ati tuziladi.

9.Talabalar tomonidan yo'naliishlar bo'yicha tayyorlangan ijodiy ishlar fakultetlar va institut kesimida tuzilgan Hakamlar hay'ati tomonidan tanlov shartlari asosida baholanadi.

10.Tanlovnning uchinchi bosqichini tashkil etish va o'tkazish Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi qoshida tashkil etilgan vazirlik Tashkiliy qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Tanlovnning yakuniy bosqichi g'oliblarini aniqlash bo'yicha Hakamlar hay'ati tuziladi. Hay'at tarkibiga soha bo'yicha yetuk mutaxassislar va professor-o'qituvchilar jalb etiladi.

### **V. Tanlov shartlari va baholash mezonlari**

11.Tanlovga taqdim etiladigan maqolalar quyidagi mezonlarda baholanadi:

- mavzuning mazmun-mohiyati to'laqonli ochib berilganligi (ilmiy, rasmiy, badiiy kriteriyalariga mos va mavzu dolzarbligiga ko'ra);
- ijodiy ishlarning stilistik va grammatic jihatdan to'g'ri yozilganligi;
- mavzuni yoritishda adabiyotlardan foydalanilganlik darajasi va tahliliy yondashuvlar, mustaqil fikrlarning aniq bildirilganligi;
- mavzuni yoritishda o'ziga xos ijodkorlik xususiyatlari ifoda etilganligi;
- mavzuni yoritishda hayotiy misollardan keng foydalanilganligi;
- mavzuga oid dolzarb masalalar, ularning yechimlari to'g'risida takliflar keltirilganligi.

Maqolada kalit so'zlar, o'zbekcha, ruscha va inglizcha annotatsiyalarining mavjudligi.

12.Taqdim etiladigan maqolalar hajmi 8-10 dan 15-20 betgacha bo'lishi mumkin.

13.Har bir mezon 10 ballik tizim asosida baholanadi (jami 70 ball).

## **VI. Hujjatlarni taqdim etish tartibi**

14. Institutda ikkita yo'nalish bo'yicha g'olib bo'lgan, 1- va 2-o'rinni egallagan talabalarning hujjatlari (*Institut Ishchi guruhi bayonnomasi va qarori, g'olib bo'lgan talabaning ijodiy materiallari va 10x15 hajmdagi fotosurati elektron shaklda*) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi **Tashkiliy qo'mitasiga 2020 yil 30 iyunga qadar** 2 nusxa yozma, 1 nusxa elektron variantda (tel: (99) 898-62-50 telegram raqami) orqali qabul qilinadi.

15. Tanlovga taqdim etiladigan maqolalar (o'zbek, rus va ingliz tillarida ham yozilishi mumkin) kompyuter Word dasturida, Times New Roman shriftida 1 intervalda, chapdan 30 mm, o'ngdan 15 mm, yuqori va pastdan 25 mm joy qoldirgan holda yozilgan bo'lishi va matnlar ilmiy, texnik, stilistik tahrir qilingan bo'lishi shart. Maqolalar 10 betdan oshmasligi kerak. Yozma materiallarning 1-nusxasida talabalarning o'qish joyi, fakulteti, kursi va ta'lim yo'nalishi to'liq ko'rsatiladi. 2-nusxasida o'qish joyi, fakulteti, kursi va ta'lim yo'nalishi ko'rsatilmaydi.

16. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan ijodiy ishlar qabul qilinmaydi. Mualliflik huquqi buzilishiga yo'l qo'yilmaydi. **Plagiat holati aniqlanganda ish tanlovdan chetlashtiriladi.**

## **VII. Tanlov g'oliblarini taqdirlash**

17. Tanlovning ikkinchi bosqichida yuqori o'rirlarni (1-, 2-, 3-) egallagan talabalar institut tomonidan maxsus diplom va quyidagi (har biri alohida) miqdorda moddiy rag'batlantiriladi:

18.“**Men diniy ekstremizm va terrorizmning tahdidini qanday tushunaman?” mavzusida o'tkazilgan “Eng yaxshi maqola” nominatsiyasidagi masofaviy ijodiy ishlar:**

1-o'rin - 1 500 000 ( bir yarim million) so'm;

2-o'rin - 1 000 000 ( bir million) so'm;

3-o'rin - 500 000 ( besh yuz ming) so'm.

Shuningdek, respublika bosqichida g'olib bo'lgan talabalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan faxriy yorliq va moddiy rag'batlantiriladi.